



YURISPRUDENSIYA VA SUN'IY INTELLEKT: KESISHISH NUQTALARI VA XATARLARNI BAHOLASH

Umirzoqova Umida Farhod qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti, Jinoiy odil sudlov fakuleti 1-kurs

talabasi, e-mail:umidaumirzoqova07@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17557061>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-noyabr 2025 yil

Ma'qullandi: 3-noyabr 2025 yil

Nashr qilindi: 8-noyabr 2025 yil

KEY WORDS

sun'iy intellekt, yuridik faoliyat,
huquqiy tartibga solish,
avtomatlashtirish, huquqiy
javobgarlik, professional malaka,
samaradorlik, adolat,
raqamlashtirish.

ABSTRACT

Ushbu maqolada hozirgi zamonaviy hayotda sun'iy intellektning nafaqat hayotimizga balki yuridik faoliyatga ta'siri haqida, uning natijalari va tafsilotlari haqida batafsil yoritilib o'tiladi. Tadqiqotning maqsadi hayotimizda o'z o'rniga ega bo'lib kelayotgan sun'iy intellektning faoliyatini o'rganish va unga munosib qonunchilik normalarini amaliyotga kiritish bo'yicha taklif va xulosalar berish. Ushbu maqola orqali yuridik faoliyatda sun'iy intellektdan to'g'ri foydalanish va uning huquqiy oqibatlari haqida ma'lumotlar beriladi.

Kirish

Bugungi kunda ilm-fan bilan bir qatorda raqamli texnologiyalar ham rivojlanib borayotganligi tufayli juda ko'p hayratlanarli natijalarga guvoh bo'lmoqdamiz. Shu sababli bu rivojlanib borayotgan zamonda sun'iy intellekt kirib bormagan sohalar tobora qo'l bilan sanoqli bo'lib bormoqda. Ayniqsa zamonaviy va kundalik hayotimizda ko'p foydalanadigan kasblarimizni bora-bora sun'iy intellektsiz tasavvur qilish qiyin bo'lib bormoqda. Rivojlanayotgan dunyo taraqqiyotida "sun'iy intellekt" "data science" "learning machine" kabi atamalar deyarli barcha soha-yu ishlarga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Shu qatorda sun'iy intellekt yuridik sohani ham chetlab o'tayotgani yo'q va bu sir emas. Bu orqali yuridik soha ham turli yangi o'zgarishlar ostonasida turibdi. Savol shuki, bu o'zgarishlar insonlar uchun qanchalik kerakli, uning foydali va zararli tomonlari qanday? Bu savollarga mazkur esse orqali javob topishga harakat qilamiz.

Material va metodlar

Ushbu ilmiy ishda tahliliy va taqqoslovchi metodlar qo'llanildi. Avvalo, yuridik sohada sun'iy intellektning tatbiq etilishi bo'yicha xorijiy mamlakatlar, jumladan AQSH, Yaponiya va Yevropa Ittifoqi tajribalari o'rganildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi" (PQ-358-sonli qaror, 2024-yil 14-oktyabr) asosida milliy yondashuv tahlil qilindi. Ma'lumotlar manbasi sifatida rasmiy hujjatlar, ilmiy maqolalar, xalqaro qonunchilik hujjatlari va ekspertlarning fikrlari tahlil qilindi. Shu bilan birgalikda Salimov Karimjon Zokirjon o'g'lining "Yuridik ta'limda va huquqshunos kasbiy faoliyatida "sun'iy intellekt"ning o'rni va ahamiyati", Axrorov Nurmuhammad Ali Islom o'g'lining "Sun'iy intellektning sud-huquq tizimida tutgan o'rni hamda undan undan sud-huquq tizimida foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari" to'g'risidagi maqolalari, S.S.Bozorovning "Sun'iy intellekt doirasida huquqiy javobgarlik"

mavzusidagi ilmiy darajani oshirish uchun tayyorlangan dissertatsiyasining avtoreferatidan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Dastavval, sun'iy intellekt qachon paydo bo'lganiga to'xtalsak. Sun'iy intellekt atamasi birinchi bo'lib 1956-yil AQSHda paydo bo'lgan. AQSHning Dartmut universitetida shu masalaga bag'ishlangan anjumanda amerikalik informatika sohasidagi olim Jon Makkarti bu atamani birinchi marta ishlatib tarixda qolgan. Sun'iy intellekt bu an'anaviy tarzda insonning vakolati deb hisoblangan ijodiy funksiyalarning intellektual tizimlar tomonidan bajarilishi hamda kommunikatsion va texnologik munosabatlarning murakkab majmui bo'lib, u mantiqiy fikrlash, o'z harakatlarini boshqarish va tashqi sharoitlar o'zgargan taqdirda o'z qarorlarini tuzatish qobiliyatiga ega.¹Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektning yuridik sohaga qo'shadigan hissalarini nisbiy ravishda ijobiy va salbiy qismlarga bo'lish mumkin. Quyida ularni ketma-ketlikda keltirib o'taman. Sun'iy intellekt yuridik sohada samaradorlikni oshirish, vaqt va resurslarni tejash hamda insoniy xatoliklarni kamaytirish imkonini bermoqda, va tadqiqot sun'iy intellekt bu natijalarga quyidagi prinsiplar orqali erishayotganini ko'rsatdi: "prediction" orqali tahlil, adolatga erishish, xatolarni kamaytirish, huquqiy monitoring. Shu bilan birga, sun'iy intellektning yuridik sohada keng qo'llanilishi bir qator huquqiy, etik va amaliy muammolarni ham yuzaga keltirishi aniqlandi: to'g'ridan to'g'ri mas'uliyatning mavjud emasligi, empatiya yetishmasligi, ma'lumotlar xavfsizligining kuchsizligi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Sun'iy intellekt bugungi kunda jadal rivojlanishda davom etmoqda, uning yuridik sohaga ta'sirlariga to'xtaladigan bolsak, foyda bilan birgalikda zararlari ham yetarlicha ekanligi isbotlanmoqda. Demak, hozir shu haqida to'xtalib o'tamiz. Birinchidan turli xil raqamli texnologiyalar tufayli inson resurslariga bo'lgan ehtiyoj kamayishi oqibatida ko'plab insonlar o'z ishlaridan ayrilmoqda. Jumladan bu kelajakda yurisprudensiya sohasida bo'lishi ham bashorat qilinmoqda. Chunki hozirdanoq sun'iy intellekt orqali sud qarorlari chiqarish, sun'iy intellekt dan advokat o'rnida foydalanish holatlari uchrashni boshladi. Shu sababli endi mas'uliyat masalalari o'rtaga qo'yiladi. Bunda sun'iy intellekt tomonidan qabul qilinadigan qarorlar uchun kim javobgar bo'lishi haqida savol tug'iladi. Agar sun'iy intellekt noto'g'ri yoki adolatsiz qaror qabul qilsa tabiiyki bunda javobgarlik kimga yuklatilishi haqida savol paydo bo'ladi. Xo'sh, bunday holatda kim javobgarlikni o'z bo'yniga oladi? Huquqshunos, dasturchi yoki tiziming o'zi? Bu ham sud ishini yanada ko'paytirib ortiqcha mummolar keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, sun'iy intellektning yuridik maslahat berishda insonlar bilan munosabatlardagi kamchiliklari uning salbiy jihatlarini sezilarli darajada namoyon qiladi. Bunga sabab sun'iy intellektda empatiya va ishonch yo'qligi desa ham bo'ladi. Chunki yuridik maslahatlar ko'pincha murakkab va shaxsiy vaziyatlarni hal qilishni talab qiladi. Sun'iy intellekt insoniy empatiya va ishonch hissini berolmaydi, mijozlar esa muammolarini algoritm bilan emas inson bilan hal qilishni afzal ko'rishadi. Shuningdek sun'iy intellekt faqat o'ziga yuklangan ma'lumotlarga ega bo'lib, murakkab inson psixologiyasi va tana tili kabi jihatlarini yaxshi tushunmaydi. Shu bilan bir qatorda undagi ma'lumotlar xavfsizligi ham shubxa ostida qoladi. Yana bir kamchiligi sun'iy intellekt bilan ishlash ko'nikmasining shakllanmaganligi – sun'iy intellekt hozirda ancha rivojlangan bo'lishiga qaramasdan, jamiyatning turli

¹ Salimov Karimjon Zokirjon o'g'li. Yuridik ta'limda va huquqshunos kasbiy faoliyatida "sun'iy intellekt" ning o'rni va ahamiyati // Innovative academy 70-bet (2022) <https://inlibrary.uz/index.php/zdif/article/download/77977/79631>

qatlamlarida undan foydalanishda kamchiliklar yuzaga kelmoqda², ayniqsa, 50 yoshdan oshgan huquqshunoslar sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha zarur ko'nikmalarga ega emaslar.

Boshqa tomondan olib qaralganda sun'iy intellektning ijobiy jihatlari ham yetarlicha. Nikolay Arxiereevning fikriga ko'ra, sud-huquq tizimi faoliyatiga sun'iy intellektni joriy etishning o'ziga xos jihatlari ancha murakkab soha bo'lib, bu borada ko'p narsa ma'lum emas³. Ammo salbiy jihatlari sanaganimiz kabi ijobiysi haqida to'xtlib o'tish zarur. Demak uning ijobiy talablariga kelsak birinchisi bu vaqtni tejash. Ishlarni tezkor ko'rib chiqish orqali vaqtni tejash va samaradorlikni oshirish – sun'iy intellekt sud hujjatlarini tahlil qilish, sud amaliyotini o'rganish va hujjatlashtirish jarayonini avtomatlashtirish natijasida vaqtni sezilarli darajada tejash imkonini beradi. Bu esa sudyalari, advokatlar va prokurorlarning yukini kamaytirib, ularga yanada dolzarbroq bo'lgan masalalarga e'tibor qaratish imkonini yaratadi⁴. Yana bir uning muhim jihati bu natijalarni bashoqat qilish, AI o'xshash sud ishlarining natijalarini, sudyaning qabul qilish tedensiyalarini tahlil qilib, ishning natijasini oldindan ayta olish xususiyatiga ega bo'ldi. Keyingi yengillik tarafi bu – xarajatlarning kamayishi va adolatga erishish. Avtomatlashtirish hisobiga yuridik xizmatlar narxi tushib, kichik biznes egalari ham ularga murojaat qilishi natijasida adolatga erishish ta'minlanadi. Yana qo'shimcha qilib xatolarni kamaytirishni yozishimiz mumkin. Chunki, hujjat yozish, biror qonunchilik yoki kodeksda moddalarni beparvolik bilan o'tkazib yuborish kabi xatolar endi sun'iy intellekt yordamida bartaraf etiladi. Shuningdek, muvofiqlik tizimi ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak, AI dunyoning turli yurisdiksiyalaridagi qonun o'zgarishlarini real vaqtda ko'rib turishi bilan ham boshqa tizimlardan ajralib turadi. Ko'plab davlat tashkilotlari sun'iy intellektni faoliyatlariga joriy qilib, katta yutuqlarga erishmoqdalar. Masalan, O'zbekiston Respublikasida 7 yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan "Ko'ngil ko'zi" loyihasi sun'iy intellekt yordamida yangi bosqichga ko'tarilganligi, Prezident administratsiyasi rahbari Saida Shavkatovna Mirziyoyeva tomonidan e'tirof etildi – "Yurtimizda yetti yildan buyon faoliyat olib borayotgan "Ko'ngil ko'zi" loyihasi sun'iy intellekt yordamida yangi bosqichga ko'tarilgani meni ayniqsa quvontirdi. Endilikda muddatidan oldin tug'ilgan chaqaloqlarda hayotining ilk kunlaridanoq retinopatiyani aniqlash mumkin⁵.

Bu esa minglab go'daklarning ko'rish qobiliyatini saqlab qolishga yordam beradi! Yangi texnologiyalar bilan bolalarda 90 foizgachako'rlik holatlarining oldini olish mumkin bo'ladi. Bu —minglab oilalarda umid tug'iladi, deganidir. Mamlakatimiz Prezidentining 2024-yil 14-Oktyabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-sonli qarori yana bir bor sun'iy intellektni mamlakatimiz ijtimoiy hayotida joriy etishda va uni keng targ'ib qilishda dasturamal bo'lib xizmat qildi⁶. Xususan, mazkur qaror sun'iy intellektni qo'llashning ustuvor yo'nalishlari va asosiy

² Axrorov Nurmuhammad Ali Islom o'g'li. Sun'iy intellektning sud-huquq tizimida tutgan o'rni hamda undan sud-huquq tizimida foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari // Ilm-fan iftixori //

<https://interspp.com/index.php/ilmfaniftixori/article/view/2140>

³ Salimov Karimjon Zokirjon o'g'li. Yuridik ta'limda va huquqshunos kasbiy faoliyatida "sun'iy intellekt" ning o'rni va ahamiyati // Innovative academy 72-bet (2022) <https://inlibrary.uz/index.php/zdif/article/download/77977/79631>

⁴ Axrorov Nurmuhammad Ali Islom o'g'li. Sun'iy intellektning sud-huquq tizimida tutgan o'rni hamda undan sud-huquq tizimida foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari // Ilm-fan iftixori //

<https://interspp.com/index.php/ilmfaniftixori/article/view/2140>

⁵ Axrorov Nurmuhammad Ali Islom o'g'li. Sun'iy intellektning sud-huquq tizimida tutgan o'rni hamda undan sud-huquq tizimida foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari // Ilm-fan iftixori //

<https://interspp.com/index.php/ilmfaniftixori/article/view/2140>

⁶ Mamlakatimiz Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ 358-sonli qarori // <http://lex.uz//uz/docs/-7158604>

tamoyillarini hamda yaqin va uzoq istiqbolda mazkur sohani kompleks shakllantirish uchun shart-sharoitlarni belgilovchi “sun'iy intellekt”ni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, davlat boshqaruvi tizimida, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini yaratish va ulardan foydalanishda yagona talablar, xavfsizlik va shaffoflikni, javobgarlikni belgilovchi normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish, aholi manfaatlari yo'lida davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasi sifatini tizimlashtirishni va bir tarmoqda shakllantirishni nazarda tutadi. Shu bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasida ham sun'iy intellektga bo'lgan e'tibor kundan kunga ortib bormoqda. Bu borada qaror va farmonlar ham mavjud. Ammo sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha milliy konsepsiya, alohida qonun va kodekslar yo'q. 2023-yilning boshiga kelib, 40 dan ortiq mamlakatlarda sun'iy intellektni rivojlantirish yuzasidan milliy strategiyalar qabul qilingan. Ular qatoriga AQSH, Kanada, Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Yaponiya, Singapur va boshqa mamlakatlarni kiritish mumkin. Bulardan tashqari robototexnika sohasidagi ilk aniq axloqiy standart – “Robotlar va robototexnika tizimlarini axloqiy loyihalash va qo'llash bo'yicha yo'riqnoma”si 2016-yilda Buyuk Britaniyada qabul qilingan. Yevropada esa “Yevropa Ittifoqi axloq direktivasi” ishonchli va xavfsiz bo'lgan sun'iy intellektni yaratish maqsadini birinchi o'ringa qo'yadi. Ayni vaqtda, xuddi shu kabi axloqiy tashabbuslar Xitoy, Kanada, AQSH va boshqa davlatlarda ham ishlab chiqilmoqda⁷. Bu kabi jarayonlar sun'iy intellektni nafaqat rivojlantirish va shu bilan birgalikda huquqiy jihatdan ham mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Sun'iy intellektni tartibga solish bo'yicha har bir davlatning o'z yurisdiksiyalari mavjud. Shulardan AQSH va Yaponiya davlatlarinikini ko'rib o'tadigan bo'lsak, AQSHda sun'iy intellektni tartibga solish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Xususan, strategik va ruxsat beruvchi aktlarga quyidagilarni kiritish mumkin: Prezidentning “Sun'iy intellektda Amerika yetakchiligini saqlab qolish to'g'risida”gi Farmoni (2019-yil), “Davlat boshqaruvida ishonchli sun'iy intellektdan foydalanishni rag'batlantirish to'g'risida”gi Farmon (2020-yil), Milliy sun'iy intellekt tashabbusi (Strategik rejalashtirish qonuni, 2021-yil), Federal avtonom avtomobil siyosati (2016-yil) va O'z-o'zidan boshqariladigan avtomobillarni sinovdan o'tkazish uchun 35+ davlat me'yoriy ruxsatnomalari. Yaponiya davlatining bu boradagi tajribasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Yann LeKun “Yaponiya sun'iy intellekt dasturchilari uchun jannatga aylandi” degan fikrni bildirgan. Yaponiyada Sun'iy intellekt strategiyasi mavjud. 2022-yil may oyida “Yo'l harakati to'g'risida”gi Qonunga o'zgartirishlar kiritilib, 4-darajali avtonom avtomobillar va avtomatlashtirilgan yetkazib berish robotlarining ishlashiga ruxsat berildi. Bularning natijasi sifatida sun'iy intellektni aynan ushbu davlatlarda rivojlanganini ko'rishimiz mumkin.

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, Bularning natijasi sifatida sun'iy intellektni aynan ushbu davlatlarda rivojlanganini ko'rishimiz mumkin. Demak, yuridik sohaga AI texnologiyalarining kirib kelishi nafaqat samaradorlikni oshirdi, balki huquqiy tizimlar oldida yangi mas'uliyatlarni ham yuzaga keltirdi. AI vositalari insoniy xatoliklarni kamaytirishi, tez va samarali maslahatlar taqdim etishi bilan ijobiy baholansa-da, uning qarorlari ustidan insoniy nazorat, algoritmik shaffoflik va etik masalalar hali to'liq yechim topgani yo'q. Aning huquqiy maqomi, u tomonidan yuzaga kelgan huquqbuzarliklar uchun javobgarlik masalalari global miqyosda munozaralarga sabab bo'lmoqda. Shu boisdan, AI texnologiyalari yuridik sohaga integratsiyalashgan sari, yangi huquqiy-me'yoriy bazalarni ishlab chiqish zarurati tug'ilmoqda. Kelgusida AI texnologiyalarining yuridik sohaga to'liq integratsiya qiladigan

⁷ S.S.Bozorov Sun'iy intellekt doirasida huquqiy javobgarlik. Yuridik fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasining avtoreferenti – Toshkent 2023-yil // <https://uza.uz/posts/458695>

bo'lsak, u yordamida maxsus qonunlar ishlab chiqarishimiz, etik va huquqiy standartlar joriy etilishimiz hamda AI va insonlar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari kuchaytirishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Salimov Karimjon Zokirjon o'g'li. Yuridik ta'limda va huquqshunos kasbiy faoliyatida "sun'iy intellekt" ning o'rni va ahamiyati // Innovative academy 70-bet (2022) <https://inlibrary.uz/index.php/zdif/article/download/77977/79631>
2. Axrorov Nurmuhammad Ali Islom o'g'li. Sun'iy intellektning sud-huquq tizimida tutgan o'rni hamda undan sud-huquq tizimida foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari // Ilm-fan iftixori // <https://interspp.com/index.php/ilmfaniftixori/article/view/2140>
3. Mamlakatimiz Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ 358-sonli qarori // <http://lex.uz/uz/docs/-7158604>
4. S.S.Bozorov Sun'iy intellekt doirasida huquqiy javobgarlik. Yuridik fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasining avtoreferenti – Toshkent 2023-yil // <https://uza.uz/posts/458695>
5. "ICTweek – 2023" haftaligi doirasida "sun'iy intellekt kelajagi va global integratsiya" mavzusidagi xalqaro sammit // <https://digital.uz/oz/news/view/3298>



INNOVATIVE
ACADEMY